

G.X.IBRAGIMOVA


20
22



KASBIY KOMPETENTLIK

TOSHKENT





371/081
ILY

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI


TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

G.X. IBRAGIMOVA

KASBIY KOMPETENTLIK

(Kredit-modul bo'yicha)

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan Kasbiy kompetentlik sirtqi bakalavriat ta'lim yo'nalishida
tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya
etilgan*



TOSHKENT – 2022

UO'K: 37.013(075)

KBK: 74.03ya73

G.X.Ibragimova. Kasbiy kompetentlik. (O'quv qo'llanma). –T.:
«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2022, 168 bet.

ISBN 978-9943-8819-4-5

Ushbu o'quv qo'llanmada "kasbiy kompetentlik" tushunchasining mohiyati, mutaxassisga xos kompetentlik sifatleri, ularni rivojlantirish yo'llari, ahamiyati, o'rni va roliga doir masalalar haqida so'z yuritilgan. Alohida e'tibor bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligi va kreativligini rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy ta'lim tizimining barcha sirtqi ta'lim yo'nalishlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish istagida bo'lgan mutaxassislarga mo'ljallangan.

В данном учебнике рассматривается сущность понятия «профессиональная компетентность», качества профессиональной компетентности, пути их развития, их значение, место и роль.

Особое внимание уделяется развитию профессиональной компетентности и креативности будущих специалистов.

Данное учебное пособие предназначено для специалистов, желающих развивать профессиональные компетенции во всех областях дистанционного обучения в системе высшего образования.

This textbook discusses the essence of the concept of "professional competence", the qualities of professional competence, ways to develop them, their importance, place and role. Particular attention is paid to the development of professional competence and creativity of future professionals.

This study guide is intended for professionals who wish to develop professional competence in all areas of distance learning in the higher education system.

UO'K: 37.013(075)

KBK: 74.03ya73

Taqrizchilar:

N.H.Hakimov – Falsafa fanlari doktori, professor;

S.A.Usmonov – O'zMU Jizzax filiali professori, pedagogika fanlari nomzodi.

ISBN 978-9943-8819-4-5

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2022.

*«Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajugimiz,
hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi
islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q.»¹*

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH

Bugungi o'zgarishlarga boy, jadal rivojlanayotgan jamiyatda inson shaxsiga qo'yiladigan talablar tobora kuchayib bormoqda. Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning sur'ati juda yuqori bo'lgan hozirgi davrda inson ma'naviyatiga, uning biron bir sohaning bilimdoni sifatida raqobatlashuv qobiliyatlariga bo'lgan talab va ehtiyojlar yanada ortmoqda. Inson kapitali har bir mamlakatning asosiy boyliklaridan biriga aylanmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining omillaridan biri bo'lgan ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar ta'limning tarkibiy tuzilishini o'zgartirishga, ta'limni boshqarishni demokratiyalashga, maqsadli natijaga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishga, yangi ta'limiy texnologiyalarni joriy etishga, axborot-kommunikatsiya vositalarini o'quv-tarbiya jarayoniga keng tatbiq qilinishiga, eng muhimi ta'lim oluvchilar, tarbiyalanuvchilar shaxsini ta'lim jarayonining markaziga qo'yishga, pedagogik jarayonning to'laqonli va teng huquqli ishtirokchisiga aylanishiga imkon beradi.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonlari oliy ta'lim tizimining sirtqi bo'limiga ham ta'sirini ko'rsatmoqda.

Bu o'z navbatida, zamonaviy ta'lim muhitining muhim tavsifi hamda shaxs imkoniyatlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishining sharti sifatida ta'lim paradigmalarni sirtqi ta'limda tahsil olayotgan talabalarning ijodkorlik faoliyatlariga alohida e'tibor qaratgan holda

¹ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/28/mirziyoyev/>

takomillashtirish, uning tarkibiy qismlari funksional va konseptual muammolari yechimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ".....boy tajribalarni har tomonlama chuqur o'rganish, umumlashtirish va shu asosda yoshlarni tarbiyalash bo'yicha zarur nazariy va o'quv-uslubiy bazani shakllantirish, bugungi talablarga to'lato'kis javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash yuzasidan amaliy ishlarni keng yo'lga qo'yish bu muammolarni yechish imkonini berishi shubhasiz".¹

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yoshlar masalasiga katta urg'u berilmoqda. Unda kelajagimiz vorislarining orzu-umidlarini, maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun yangi oliygo'har ochish, kitob mutolaasi, sport bilan shug'ullanishlari, tadbirkorlik qilishi, umuman olganda jamiyatda o'z o'rnini topishlari uchun keng ko'lamli imkoniyatlar yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Sizga taqdim etilayotgan o'quv qo'llanmada sirtqi ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning innovatsion rivojlanish bosqichida ularni kasbiy-pedagogik mahoratini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmaning maqsadi – oliy ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi holati va yaqin kelajakdagi istiqbollaridan kelib chiqqan holda, sirtqi ta'limda tahsil olayotgan talabalarning normativ-huquqiy masalalariga oid bilimlar, ularning kelgusida rahbar lavozimlarda ishlashlari, nazariy va amaliy yondashuvlari, amaliyotda tajribaga ega ekanliklari, karyera qilish orzularining borligi, rahbar lavozimlarda ishlash niyatida tahsil olayotganliklari, boy tajribaga ega ekanliklari hamda yoshi katta bo'lishiga qaramay, ilmga chanqoqligi kasbiy kompetentlik fanidan tayyorlanayotgan mazkur o'quv qo'llanmada o'z aksini topgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oiy Majlisiga. // "Xalq so'zi" gazetasi (2020-yil 24-yanvar)

O'quv-tarbiya jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkillashtirish va uni amalga oshirish – kasbiy kompetentlik sir-asrorlari bilan yaqindan tanishish, pedagogik mahorat asoslari hamda kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish usullari bilan qurollantirishdan iborat.

O'quv-qo'llanmani tayyorlashda muallif eng so'nggi psixologik va pedagogik adabiyotlardan, Oliy pedagogika instituti pedagog xodimlar malakasini oshirish kurslarida o'qigan ma'ruzalaridan, Oliy o'quv yurtlari rahbarlari va bank xodimlari, pedagoglar bilan o'tkazgan seminarlar, trening mashg'ulotlari materiallaridan, o'zining qariyb 40 yillik ilmiy-pedagogik va amaliy faoliyatida to'plagan pedagogik tajribasi hamda o'tkazgan tadqiqot ishlari natijalaridan unumli foydalangan.

“Kasbiy kompetentlik” fanining maqsadi – talabalarni, bo'lajak mutaxassislar kompetensiyasi, ularning amaliyotdagi intilishi va qobiliyati hamda o'z inkoniyatlarini muvaffaqiyatli, ijodiy faoliyat ko'rsatishga, kasbiy va ijtimoiy sohada qo'llashga hamda bu faoliyatni ijtimoiy ahamiyatini, uning natijalariga nisbatan shaxsiy mas'uliyatni his etishi, doimo uzluksiz ravishda o'z ustida ishlashi kabi fazilatlarni ro'yobga chiqarish, kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini tahlil qilish va aniqlashtirish, talabalarda kasbiy kompetentlikni namoyon qilish kabi ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, talabalarda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda ta'lim texnologiyalarini loyihalash va rejalashtirishga doir proektiv, prognostik va kreativ kompetentlikni rivojlantirish hisoblanadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Talaba:

➤ bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllanishining tarkibiy tuzilmasi, zamonaviy mutaxassis shaxsiga qo'yiladigan talablar, o'zaro munosabatlarning shaxsiy, huquqiy jihatlari,

“kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchasining mohiyati, kasbiy kompetentlik sifatlari to‘g‘risida *tasavvurga ega bo‘lishi*;

➤ mutaxassislarni tayyorlash jarayoni mazmunini kompetentlik yondashuv asosida modernizatsiyalash, Davlat ta‘lim standartida bo‘lajak mutaxassislarning ishlab chiqilgan umumiy malakaviy kompetensiyalarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

➤ bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish metodlarini tanlash, mutaxassislarning kasbiy kompetentligini baholash mezonlari, kasbiy kompetentlik kartasi shakllantirish, kompetensiya pasportini aniqlash hamda mutaxassislar sifatida o‘zini o‘zi tahlil qilish, o‘zini o‘zi baholash, o‘z-o‘zini rivojlantirishi bo‘yicha *ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi kerak*.

1-MAVZU. “KASBIY KOMPETENTLIK” FANINING MAZMUNI, MOHIYATI VA O‘RGANISHNING AHAMIYATI

“Ma’lumotli inson – bu o‘zi bilmaydigan narsani qayerdan topishini biladigan insondir”

G.Zemmel (nemis sotsiologi)

Reja:

- 1.1. “Kasbiy kompetentlik” fanining mazmuni va o‘rganishning ahamiyati.
- 1.2. “Kompetentlik” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalarining mohiyati.
- 1.3. Kasbiy kompetentlikning ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rmi va amaliyotga tatbiqi.
- 1.4. Mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari.

Tayanch iboralar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, layoqat, ko‘nikma, kompetensiya, kompetentlik sifatleri, malaka, qiziqish, ta’lim-tarbiya, tajriba.

1.1. “Kasbiy kompetentlik” fanining mazmuni va o‘rganishning ahamiyati

Yoshlarni kasbga yo‘naltirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha muhim tashabbuslarga 2019-yilning 19-mart kuni tamal toshi qo‘yildi. Ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida olib borish maqsadida ertamiz egalari hayoti uchun muhim bo‘lgan besh tashabbus ilgari surilib, yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, navqiron avlodni madaniyat, san’at, adabiyot, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida

kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalari kun tartibiga qo'yildi.¹

“Kasbiy kompetentlik” fani – bu mutaxassislarni o'zlari tanlagan kasbga nisbatan ularning layoqatlarini, qobiliyatlarini, qiziqishlarini hamda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda asosiy mezonlarni belgilab beruvchi alohida fan sohasi hisoblanadi. “Yaproq ildizdan quvvat oladi”, - deydi xalqimiz. Biroq yaproq ko'm-ko'k bo'lib, barq urib, o'sishi uchun uning ildizi mustahkam bo'lmog'i lozim. Bugungi yetishib kelayotgan mutaxassislar yaxshi ustozlar bilan birgalikda o'zlari tanlagan mutaxassislikning haqiqiy fidoyisi bo'lishi uchun yetarli darajada kasbiy kompetentlik ko'nikmasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat: Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim. Mening fikrimcha, ta'lim – tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo shu yerda. Mutaxassis talabalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak. Shaxs Kadrlar tayyorlash milliy modelining muhim tarkibiy qismi,

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oiy Majlisga. //“Xalq so'zi” gazetasi (2020-yil 24-yanvar)

kadrlar tayyorlash tizimining bosh Subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida belgilab berilgan. Bu esa respublikamizda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yo'lga qo'yilishi uchun zarur asoslarni yaratib berdi. Psixolog olimlar kasbiy kompetensiya tushunchasiga turlicha ta'rif beradilar. T.M.Sorokinaning fikricha kasbiy kompetentlik pedagoglarning kasbiy faoliyatni nazariy va amaliy jihatdan amalga oshirishga tayyorligi hamda pedagogik vazifalarni turlicha darajada yechish qobiliyatiga ega bo'lishi tushuniladi. M.I Lukyanova esa psixologik-pedagogik kompetentlikni pedagog shaxsining o'ziga xos sifatlari hamda yuqori darajadagi kasbiy tayyorlikni va ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilar bilan o'zaro samarali ta'sir ko'rsata olish yig'indisi, – deb ta'kidlaydi.¹ “Kompetensiya” termini tilshunoslikda ilk bor XX asrning 50-60-yillarida qo'llangan va insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqatini bildirgan. A.Zimnyaya,² A.Xutorskiy³ va boshqalar tomonidan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalariga berilgan ta'riflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab qilinadigan xulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlik esa ushbu talabga moslik darajasi, ya'ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi deb talqin qilinadi. Ularni umumlashtirgan holda, bugungi kunda ta'lim jarayonida faol qo'llanayotgan ushbu tushunchalarni sharhlashda quyidagi xulosaga keldik: “Kompetensiya” – ma'lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlarning hamda bilim, ko'nikma va malakalarning samarali qo'llanishi; “kompetentlik” esa muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan layoqatdir. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda


¹ Долгоруков А. Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения: http://www.vshu.ru/lections.php?tab_id=3&a=info&id=2600

² Зимняя П.А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании // 2005. – № 6. – С. 13–29.

³ Хуторский, А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. 2003. - №2. - С. 58-64.

tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:
(1-rasm)



1-rasm. Kasbiy kompetentlik holatlari.

1.2. "Kompetentlik" va "kasbiy kompetentlik" tushunchalarining mohiyati.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Mutaxassis o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o'rinda shu va shunga yondash g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

Yodda tuting!

"Kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Yodda tuting!

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

1.3.Kasbiy kompetentlikning ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni va amaliyotga tatbiqi

Kasbiy kompetentlik fanining taraqqiyotga ta’sir etuvchi ayrim jihatlari, ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni va amaliyotga tatbiqi quyidagi jarayonlarni amalga oshirishni taqazo etadi:

- Matematik-statistik, biopsixologik va gnoseologik-semasiologik fanlarning natijalaridan keng foydalanish asosida kasbiy kompetentlikning boshqa insonshunoslik fanlari bilan mustahkam

aloqalarini o'rnatish va ilmiy bilimlarning integratsion jarayonini chuqurlashtirish;

- Dunyoni kasbiy-pedagogik anglashning nazariy-fundamental doirasini kengaytirish, ya'ni fanning ilmiy maqomi va ijtimoiy funksiyasini saqlab qolish uchun nazariyadan amaliyotga tomon harakatlanish kerak;

- Kasbiy kompetentlik fanida matematik-statistik va semantik-sematsiologik axborot manbalaridan tizimli foydalanish;

- Ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini optimallashtirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarini boshqarishda kasbiy-pedagogik jarayonni axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratish;

- Kasbiy kompetentlik o'z rivojining individual trayektoriyasini saqlab qolishi hamda boshqa fanlarning tushuncha va kategoriyalaridan o'rinsiz foydalanish hisobiga uning tushunarsiz va murakkablashuviga olib kelmaslik;

- Global planetar muammolarni hal etish uchun shaxslararo, millatlararo va davlatlararo munosabatlarni insonparvarlashtirish va axloqiy me'yorlarning to'liq ta'minlanishiga doir ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish.

Zamonaviy sharoitda kasbiy kompetentlik fanining ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va amaliyotga tatbiqi inson turmush tarzining barcha yo'nalishlari (ijtimoiy, shaxsiy, siyosiy va boshqalari)da samarali kasbiy-pedagogik tizimlarni yaratishga yo'naltirilgan. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ❖ ta'lim-tarbiya, ta'limiy va tarbiyaviy tizimlarni boshqarish sohasiga doir qonuniyatlarni aniqlash va o'rganish;

- ❖ kasbiy-pedagogik tajribani o'rganish va joriy etish;

- ❖ ta'lim tizimlarining istiqboldagi rivojlanishini tashxis etish;

- ❖ ta'lim-tarbiyaning yangi shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish;

- ❖ kasbiy-pedagogik tadqiqot natijalarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

❖ xalqaro kasbiy-pedagogik loyihalarda ishtirok etish, axborotlar almashish, kasbiy-pedagogik yo'nalishga doir xalqaro tajribalarni o'rganish;


❖ kasbiy-pedagogik muasssalarning barqaror tizimini ishlab chiqish va ularning samaradorligini oshirish.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, kasbiy kompetentlik fanining taraqqiyotga ta'sir etuvchi ayrim jihatlari, ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va amaliyotga tatbiqi shuni ko'rsatdiki, sirtqi ta'limda tahsil olayotgan talabalar amaliyotdagi faoliyatining saviyasi yuqoriligi bilan, tajribaliligi bilan, mehnat faoliyatiga ega ekanligi bilan hamda mutaxassisligidan kelib chiqqan holda kasbiy mahorat va malakaga ega ekanligi dars jarayonida o'z tasdig'ini topdi. Sirtqi ta'limda tahsil olayotgan talabalar bilan ishlash o'ta maroqli va mazmunli bo'lib, ularda amaliy tajribaning yuqoriligi fanlarni yaxshi o'zlashtirishda yaqindan yordam berdi. Biroq, shu bilan bir qatorda nazariy bilimlarni o'zlashtirishlari lozimligi yaqqol sezilib turdi. Bu esa o'z navbatida kasbiy kompetentlik fanini ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va amaliyotga tatbiqi naqadar muhim ekanligini ko'rsatdi.

1.4. Mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova¹ tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

¹ Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996.



2-rasm. Mutaxassisning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy asoslari.

O'z tadqiqotlarida A.K. Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi (3-rasm):



3-rasm. Tarkibiy asoslar.


Kompetentlik, uning o'ziga xos jihatlari ko'plab ilmiy tadqiqot jarayonlarida o'rganilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra mutaxassisga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi (3-rasm):

**Pedagogik kompetentlikning
muhim tarkibiy asoslari (B.Nazarova)¹**

Kasbiy kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash – shaxs yoki mutaxassis tomonidan o'zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo'lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi

QUYIDAGILARDA KO'RINADI (4-rasm):



4-rasm. O'z ustida ishlash.

¹ H.Муслимов, М.Усмоновва, Д.Саифуров, А.Турсев. Педагогик компетентлик ва креатиклик асослари. Т.: 2015. 45 б.